

KASB TANLASHDA MILLIY QADRIYATLARNING AHAMIYATI VA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Mo‘ydinov Abrorjon Sodiqjonovich

Annotatsiya: Ushbu maqolada yoshlarning kasb tanlashi jarayonida milliy qadriyatlarning tutgan o‘rni va ta’siri hamda bu jarayonga zamonaviy pedagogik yondashuvlar orqali yo‘naltirish zarurati yoritiladi. O‘zbek xalqining tarixiy tajribasiga tayangan holda kasbga bo‘lgan munosabat, mehnatga hurmat va hunarga ustozlik qadriyatlari yosh avlod ongida kasbiy yo‘nalishni shakllantirishda muhim asos bo‘lib xizmat qilishi mumkinligi asoslanadi. Maqolada o‘quvchilarни kasb tanlashga yo‘naltirishda ta’lim muassasalari, ota-onalar, mahalla va jamiyatning o‘zaro hamkorligi to‘g’risida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: kasb tanlash, milliy qadriyatlар, mehnat madaniyati, pedagogik yondashuv, hunarga hurmat, kasbiy yo‘naltirish, tarbiya.

Yoshlarning to‘g‘ri kasb tanlashi nafaqat ularning shaxsiy muvaffaqiyati, balki butun jamiyat taraqqiyoti uchun muhim omil sanaladi. Kasb tanlash – hayotiy yo‘Ining asosiy bosqichlaridan biridir. Bu jarayonda shaxsning qiziqishi, iste’dodi va mehnatga bo‘lgan munosabati bilan birga uning ijtimoiy, ma’naviy va madaniy tarbiyasi, ayniqsa milliy qadriyatlarni shakllangan qarashlari ham katta ahamiyat kasb etadi. O‘zbek xalqining qadimiy tarixida har bir kasbga nisbatan chuqur hurmat, usta-shogird an’analari, mehnatning muqaddas sanalishi kabi yondashuvlar mavjud bo‘lib, bugungi ta’lim jarayonida bu merosni yosh avlod ongiga singdirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

1. Milliy qadriyatlarda kasb va mehnatning o‘rni.

O‘zbek xalq maqollarida “Hunarsiz kishi – qanotsiz qush”, “Kasb egasi – boylik egasi”, “Qo‘li gul usta oltin topadi” kabi iboralar kasb va hunarga bo‘lgan chuqur ijtimoiy va madaniy hurmatni aks ettiradi. Tarixiy manbalarda, ayniqsa temuriylar davrida, har bir kasb egasining jamiyatda o‘z o‘rni bo‘lgani, hunarmandchilik va dehqonchilikning ustuvor ahamiyatga ega bo‘lgani ko‘rsatilgan. Ayniqsa ota-bobolarimiz orasida hunar meros tariqasida avloddan avlodga o‘tgan, usta-shogird tizimi orqali yoshlar kasbga o‘rgatilgan. Bugungi yoshlarning ham milliy o‘zlikni anglashida va kasb tanlashda bu qadriyatlarni katta tarbiyaviy kuchga ega.

2. Zamonaviy pedagogik yondashuvlarning o‘rni.

Hozirgi ta’lim tizimida kasbga yo‘naltirish pedagogik jarayon sifatida qaralmoqda. Psixologik diagnostika, kasbga layoqatni aniqlovchi testlar, qiziqishlar xaritasini tuzish kabi metodlar orqali o‘quvchining ichki dunyosini o‘rganish muhim. Shuningdek, TEAM yondashuvi, dual ta’lim, loyiha asosida o‘qitish kabi innovatsion yondashuvlar orqali o‘quvchi o‘zini real hayotga tayyorlaydi. Ammo bu jarayonda milliy qadriyatlarga tayanmaslik – yoshlarni mehnatni qadrlamaslik, faqat daromad ortidan quvishga undashi

mumkin. Shuning uchun zamonaviy metodlar va milliy madaniy asoslardan bir-birini to’ldirishi lozim.

3. Kasb tanlashda oilaning va mahallanining roli.

Kasb tanlash jarayonida faqat ta’lim muassasalarini emas, balki oila va mahalla ham faol ishtirok etishi lozim. Ota-onaning o‘z farzandini real imkoniyatlari va qiziqishlariga mos holda yo‘naltirishi, mahallada ijtimoiy faoliyat, turli kasblar bilan tanishtiruvchi tadbirlar o‘tkazilishi, yoshlarni ustalar, tadbirkorlar, mutaxassislar bilan uchrashhtirish kabi tashabbuslar kasbga qiziqishni oshiradi. Shuningdek, oila a’zolarining mehnatsevarligi, kasbidan faxrlanishi bolada ijobiy namuna sifatida aks etadi.

4. Amaliy tavsiyalar.

- Ta’lim muassasalarida kasbga yo‘naltirish haftaliklari, ustalar bilan uchrashuvlar, “kasbim – faxrim” mavzusida sinfdan tashqari mashg‘ulotlar tashkil etilishi kerak
- Har bir hududning mehnat bozori o‘rganilib, mакtablar kasbiy yo‘nalishlar bo‘yicha joylardagi ehtiyojdan kelib chiqib yo‘naltirish siyosatini olib borishi zarur
- Milliy hunar va kasblarni tiklash orqali yoshlar orasida o‘z kasbini sevish va vataniga foydali bo‘lish g‘oyasini kuchaytirish mumkin
- Ta’limda kasb-hunar kollejlarining imidjini oshirish, ularni zamonaviy texnika bilan ta’minlash, raqamli kasblarga yo‘naltirish bilan milliy qadriyatlar uyg‘unlashtirilgan yondashuv yaratish lozim

XULOSA:

Kasb tanlash – bu nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va tarbiyaviy jarayon bo‘lib, unda milliy qadriyatlar muhim ideologik rol o‘ynaydi. Ota-bobolarimiz mehnatni muqaddas bilgan, kasbni hayot mazmuni deb qabul qilgan. Bugungi ta’limda esa ana shu merosni pedagogik yondashuvlar bilan uyg‘unlashtirib, yoshlarni ongli, mas’uliyatli va maqsadli kasb tanlashga yo‘naltirish dolzarb vazifalardan biridir. Bu esa o‘z navbatida ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy taraqqiyot va madaniy yuksalishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Taxonomy of Educational Objectives, Handbook 1: Cognitive Domain 2nd edition Edition, Benjamin S. Bloom
2. Zunnunov A. Hotamov N. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T., 1992
3. Dolimov S. Ubaydullayev H. Adabiyot o‘qitish metodikasi. T., 1967
4. Yo’ldoshev Q. Adabiyot o‘qitishning ilmiy-nazariy asoslari. T., 1996